

JAMIYATNI YUKSALTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(huquq ta'limi) 1-bosqich magistranti
Shamsutdinova Zebiniso Mansurbek qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatni yuksaltirishda huquqiy tarbiyaning roli, aholining huquqiy madaniyatini oshirishda qanday jabhalarga e'tibor qaratish kerakligi bayon etilgan. Bugungi kunda aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligining sabablari va buni bartaraf etish usullari nimalardan iborat ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, demokratiya, huquqiy targ'ibot, davlat, jamiyat, fuqaro, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, Parlament, ijro etuvchi hokimiyat, yuridik amaliyot.

«Aholining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish - huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo'nalishdir» Islom Karimov¹

Dastlab, huquqiy tarbiya tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz. Huquqiy tarbiya - bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir². Demak, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqiy tarbiya huquqqa oid bilimlarni doimiy oshirib borish, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish va shu orqali chinakam fuqarolik jamiyati qurish. Huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash huquqiy tarbiya vositalariga kiradi. Huquqiy tarbiya deganda, faqatgina huquq yordamida emas, balki axloqiy normalar orqali ham ta'sir o'tkazishdir. Masalan, o'g'irlik qilish huquqiy nuqtayi nazardan jinoyat deb nomlanib, jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solinsa, axloq normalarida ham birovning haqiga xiyonat qilish sifatida qoralanadi hamda jamoatchilikning e'tirozi orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Huquqiy tarbiyaning ikki turi farqlanadi. Bular:

- tor ma'nodagi huquqiy tarbiya;
- keng ma'nodagi huquqiy tarbiya.

Tor ma'nodagi huquqiy tarbiyada huquqiy bilimlarni biz yuridik oliygohlarda olishimiz mumkin.

¹ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi.5-tom

² Saydullayev.SH.A. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent-2018- 101-b

Keng ma'nodagi huquqiy tarbiyani esa, oilada, bog'chada, maktabda, yoki o'zimiz mustaqil o'qish orqali olishimiz mumkin³.

Huquqiy tarbiyaning vositalari deb, huquqiy targ'ibot va tashviqot, huquqiy ta'lim, o'z o'zini tarbiyalash va yuridik amaliyotni aytishimiz mumkin.

Huquqiy targ'ibot va tashviqot. Huquqiy tarbiya vositalariga alohida-alohida to'xtaladigan bo'lsak, ulardan biri - bu huquqiy targ'ibot. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan aholining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Adliya vazirligi tomonidan "Prezident qarori - hayotda va nazoratda" shiori ostida joylarda targ'ibot - tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu vazirlikning tashabbusi bilan turli ko'rik-tanlovlari tashkil etilib, huquqiy bilimlari yuqori bo'lgan fuqarolar rag'batlantirilmoqda. Rag'bat sifatida hattoki avtomashinalarning berilayotganligi ham huquqiy targ'ibotni kuchaytirish uchundir.

Huquqiy ta'lim. Huquqiy ta'lim, avvalo, maktablarda yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Tan olish kerakki, bugungi kunda maktabdagi huquqshunoslik fanlarining o'qitilishi sifat darajasida emas. Bunga asosiy sabab qilib, o'quv soatlarining kamligini aytish mumkin. Haftasida bir soatgina o'rganish ushbu fanni chuqurroq bilish uchun yetarli emas deb hisoblayman. Dars soatining kamligi tufayli bu fandan dars berishga hamma ham ishtiyoq bildirmaydi. Va o'quvchilar tomonidan ham qiziqib o'rganilmaydi. Ammo bu holat huquqshunoslikni yaxshi o'rganolmaslik uchun sabab bo'la olmaydi. Inson o'zi mustaqil o'qib- izlanib, doimiy yangiliklardan xabardor bo'lib, zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Ana shundagina o'zining rivoji uchun qanday imkoniyatlar yaratib berilayotganligining guvohi bo'ladi va o'zi ham ushbu imkoniyatlardan foydalanadi.

O'zini o'zi tarbiyalash. Yuqorida aytib o'tgan fikrimiz ham o'zini o'zi tarbiyalashga misol bo'la oladi. Inson hayotdagi voqealarni kuzatish orqali o'zini o'zi tarbiyalashi mumkin. Ya'ni huquq va majburiyatlarini yaxshi bilgan, konstitutsiya va qonunlarga rioya qilgan, yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan insonlar qanday natijalarga erishdi-yu, sust huquqiy nigilizm tarafdori bo'lib, amaldagi qonunlarni mensimasdan, o'zlari xohlaganicha ish tutgan insonlarning taqdiri qanday kechdi? Ana shularni o'ziga ibrat qilib, boshqalar ilgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qilishi lozim.

Yuridik amaliyot. Ya'ni inson faqatgina amaldagi qonunlar bilan tanish bo'lib, doimiy boxabar bo'libgina qolmay, o'zlari ham real hayotda ularni qo'llashi lozim. Nafaqat o'zi amal qilishi, balki yon atrofidagi huquqbuzarliklarga jim qarab turmasdan, ular bilan murosasiz kurashishi lozim. Masalan, bugungi kunda eng dolzarb masala - bu karantin qoidalariga rioya qilish. Bu borada qancha eshittiruvlar, tushuntirish ishlari olib borilmasin, baribir ba'zi fuqarolar ushbu qoidalariga hamon amal qilmayapti.

³ Odilqoriyev X.T.Davlat va huquq nazariyasi.Toshkent-2018.297-b

Ulardan biri niqob taqmaslik. Bu orqali kasallikni qanchadan qancha odamlarga yuqtirish mumkin. Shunday ekan, yon-atrofimizda niqobsiz yurgan odamlarga befarq bo'lmay, ularga to'g'ri tushuntirishimiz, niqob taqmaslikning oqibatlari nimalarga olib kelishini aytishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga ko'ra, "Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart".⁴

Huquqiy tarbiya metodlari. Yuqorida huquqiy tarbiya vositalari sifatida bir qancha turlarini aytib o'tdik. Endi esa huquqiy tarbiya metodlari haqida so'z yuritamiz. Yuridik fanda huquqiy tarbiyaning asosiy va qo'shimcha metodlari farqlanadi. Bunda asosiy metodlarga ishontirish, namuna va odatlantirishga o'rgatish, qo'shimcha metodlarga esa, bosh vazifasi asosiy metodlarning harakatini kuchaytirish va ta'sirini qo'shimcha oshirish bo'lgan rag'batlantirish metodlari kiradi. (Saydullayev. Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent-2018. - 102-b) Metodlarni qo'llash aholining, ayniqsa, yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha eng samarali usullardan biridir. Ushbu metodlar sirasiga, rag'batlantirish, taqiqlash, namuna sifatida ko'rsatish kabilarni keltirishimiz mumkin. Masalan, rag'batlantirish metodiga shunday bir tizimni joriy etish mumkin. Barchaga ma'lumki, davlatning rivoji aholidan olinadigan soliqlarga ham bog'liq. Usiz davlat mavjud bo'la olmaydi. Lekin fuqarolarning barchasi ham soliq to'lash majburiyatini to'laqonli ado etmaydi. Shuning uchun, soliqlarni o'z vaqtida to'lab yuradigan fuqarolarga turli rag'batlarni joriy qilish kerak deb o'ylayman. Shunda hamma soliqlarni o'z vaqtida to'lashga ishtiyoq bildirishadi. Yoki boshqa sohalarga ham rag'batlarni joriy etish orqali ish unumdorligini oshirish mumkin. Taqiq deganda esa qonunlarga to'laqonli rioya etmagan shaxslarni ma'lum bir huquqlardan cheklash orqali ularni huquqqa rioya etishga da'vat qilish mumkin. Namuna qilish metodi orqali uyda ota-ona, maktabda ustoz yaxshi xulqli bolalarni boshqalarga o'rnak sifatida ko'rsatishi ham huquqiy tarbiyaning muhim metodi hisoblanadi.

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etish ko'p jihatdan yangi huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liqdir. Ma'lumki, huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni va hatto ular sifati bilan ham emas, balki ularni og'ishmay bajarish bilan belgilanadi. Eng ajoyib qonun ham, agar u amalda bajarilmasa, hech qanday qimmatga ega bo'lolmaydi. Sh.Monteskye o'z zamonasidayoq shunday deb yozgandi: "Qaysi bir mamlakatga o'tlanarkanman, men u yerdagi qonunlarning yaxshiligini emas, ular qanday amalga oshirilayotganini tekshiraman, chunki yaxshi qonunlar hamma yerda uchraydi"⁵

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-20596>

⁵ Montesкье III. Произведения. М. 1955, 18-бет

Xulosa qilib aytganda, huquqiy tarbiyaning vositalari bo'lgan huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash uzviy bog'liqlikda olib borilishi lozim. Chinakam huquqiy davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun, avvalo, aholini, xususan, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Bugungi kunda huquqlarning buzilishiga eng ko'p misol qilib, oilaviy zo'ravonliklar va buning natijasida farzandlarning ham ma'nan zaif, huquqiy savodsiz bo'lib qolayotganligini aytish mumkin. Kuni kecha AOKA da bo'lib o'tgan brifingda ham oilaviy zo'ravonliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha davlatimizda qanday ishlar amalga oshirilayotganligi haqida so'z yuritildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari Svetlana Ortikova oilaviy zo'ravonliklarning davom etishiga asosiy sabablardan biri qilib ayollarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligini ham aytib o'tdi. "Ular uy-joysiz, farzandlari bilan yolg'iz qolib ketishidan qo'rqib, barchasiga ko'z yumadi va bu holatlar yana davom etaveradi" deb ta'kidlab o'tdi ma'ruzada. Bundan xulosa qilish mumkinki, huquqiy tarbiya birinchi navbatda, oiladan boshlanadi. Farzandning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ham oilasida olgan tarbiyasiga bog'liq. Shunday ekan, huquqiy savodxonlikni oshirishda ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borish eng samarali usuldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-tom.
2. Saydullayev. Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent-2018.
3. Odilqoriyev. X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent-2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. Монтескье Ш. Избр. Произведения. М., 1955, 318-бет.